

JAZODAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILINGAN SHAXSLAR BILAN PROFILAKTIK ISHLARNI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti

Normo'minov Suxrob Zohidjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
va probatsiya faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi*

Umaraliyeva Dilshodaxon Nabijonovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, profilaktik nazoratni samarali tashkil etish hamda davlat organlari va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Probatsiya nazorati, profilaktika, shartli ozod qilish, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy moslashuv, huquqiy tarbiya.*

KIRISH

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash har qanday davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jazoni ijro etish tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish, mahkumlarning tuzalishiga yordam berish hamda ularni jamiyatga qayta moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti ham ana shunday insonparvarlik tamoyillariga asoslangan huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Mazkur institut mahkumning tuzalish yo'liga kirganligini inobatga olib, jazoning bir qismini o'taganidan so'ng uni jamiyatga qaytarish imkonini beradi. Biroq shartli ozod qilingan shaxslar bilan muntazam profilaktik ishlar olib borilmasa, ularning qayta jinoyat sodir etish xavfi saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar bilan profilaktik ishlarni samarali tashkil etish jinoyatchilik profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy asoslari va mohiyati

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish — bu sud tomonidan tayinlangan jazoning jinoyat kodeksida belgilab qo'yilgan qismini o'tagan mahkumni uning xulq-atvori, mehnatga munosabati hamda tuzalish yo'liga kirgani hisobga olinib jazoning qolgan qismini o'tamasdan ozod qilishdir. Ushbu tushuncha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 73-moddasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

chog'ida sud asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, mahkumning zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklatishi mumkin:

- a) ishga yoki o'qishga joylashish;
- b) muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarganligi haqida uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organga xabar berish;
- v) muayyan joylarga bormaslik;
- g) alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tash;
- d) O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqmaslik.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni ichki ishlar organlari, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan harbiy xizmatchilarning xulq-atvori ustidan nazoratni esa — harbiy qismlar yoki muassasalarning qo'mondonligi amalga oshiradi.

Agar shaxs ushbu talablarga rioya qilmasa yoki yangi jinoyat sodir etsa, shartli ozod qilish bekor qilinishi va jazoning qolgan qismini o'tashi mumkin. Mazkur institut mahkumlarni ijobiy xulq-atvoriga undaydi hamda ularning jamiyatga qayta moslashishiga yordam beradi. Shartli ozod qilingan shaxslar bilan profilaktik ishlarning mazmuni Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarning asosiy maqsadi ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash hamda qonuniy hayot tarzini shakllantirishdan iborat. Profilaktik ishlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Individual profilaktik ishlar: Bunday shaxslar bilan individual tarzda ishlash muhim ahamiyatga ega. Profilaktik suhbatlar orqali ularning shaxsiy muammolari, ijtimoiy holati hamda psixologik portretlar o'tkazish orqali psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu esa profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Nazorat tadbirlarini amalga oshirish: Shartli ozod qilingan shaxslar ustidan tegishli organlar tomonidan nazorat o'rnatiladi. Jumladan, IIOning Probatsiya xizmati, tegishli hududdagi Profilaktika inspektori. Nazorat jarayonida ularning yashash joyi, ish faoliyati hamda ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori o'rganiladi. Jazo o'tash tartibi va shartlari buzilgan hollarda tegishli huquqiy ta'sir choralari qo'llaniladi.

Ijtimoiy moslashuvga ko'maklashish

Jazoni o'tab chiqqan shaxslar ko'pincha ijtimoiy muammolarga duch keladi. Ular ish topish, jamiyatga moslashish yoki ijtimoiy aloqalarni tiklashda qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Shu sababli profilaktik ishlar jarayonida ularning ijtimoiy moslashuviga yordam berish muhim hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya va targ'ibot ishlari

Shartli ozod qilingan shaxslar bilan huquqiy targ'ibot ishlari olib borish ham muhim profilaktik choralardan biridir. Bu orqali ularning huquqiy ongini oshirish hamda qonunlarga hurmat bilan qarashini shakllantirish mumkin.

Профилактик ishlarni tashkil etishda davlat organlari va jamoatchilik hamkorligi

Профилактик ishlarni samarali tashkil etish uchun turli davlat organlari hamda jamoat tashkilotlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlari shartli ozod qilingan shaxslarni hisobga olish, ular bilan individual profilaktik ishlarni olib borish hamda nazoratni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

Mahalla fuqarolar yig'inlari esa bunday shaxslarning ijtimoiy muhitga moslashuviga yordam beradi. Mahalla faollari ularning turmush sharoitini o'rganish, ijtimoiy muammolarini hal etish hamda jamoat hayotiga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bandlik organlari esa shartli ozod qilingan shaxslarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Chunki doimiy ish bilan band bo'lgan shaxslarning qayta jinoyat sodir etish ehtimoli ancha kamayadi.

Профилактик faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari

Hozirgi kunda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar bilan profilaktik ishlarni yanada takomillashtirish zarur.

Birinchidan, profilaktik ishlar jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish lozim. Har bir shaxsning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ish olib borish samaradorlikni oshiradi.

Ikkinchidan, ularni kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash bo'yicha dasturlarni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, profilaktik faoliyatni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham samaradorlikni oshiradi.

To'rtinchidan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali jamiyatning o'zi ham jinoyatchilik profilaktikasida faol ishtirok etishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar bilan profilaktik ishlarni samarali tashkil etish jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Bunday shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvi, ularning qonuniy hayot tarzini olib borishi hamda qayta jinoyat sodir etishining oldini olish profilaktik faoliyatning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Профилактик ishlarni samarali tashkil etish uchun davlat organlari, mahalla institutlari, jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Tizimli va kompleks yondashuv orqali bunday shaxslarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – 1997-yil 25-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-407-son, 16.09.2016.
6. O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-938-son, 07.08.2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – PF-6196-son, 26.03.2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. – 813-son, 05.12.2024
9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.
10. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-344-son, 2012-yil 25-dekabr.
Elektron manbalar:
 11. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
 12. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining rasmiy veb-sayti. Probatsiya xizmatining yillik faoliyati sahifasi. – https://gov.uz/oz/iiv/activity_page/probatsiya-xizmati
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – <https://president.uz>
 14. BM Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi bosh boshqarmasi (UNODC). Evropa Probatsiya Konfederatsiyasi (CEP) hamkorligi haqida ma'lumot. – 2022. // [https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/ReducingReoffending/Confederation of European Probation - UNODC CEP information 2022 final.pdf](https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/ReducingReoffending/Confederation%20of%20European%20Probation%20-%20UNODC%20CEP%20information%202022%20final.pdf)